Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024-yil 28-fevral, № 43 (8666) Chorshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TOSHKENT SHAHRIDA SANOAT, INFRATUZILMA VA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga 27-fevral kuni Toshkent shahrida sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalari hamda infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha hujjatlar loyihalari yuzasidan axborot berildi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish, hududlarning turizm salohiyatini ro‘yobga chiqarish, aholining uy-joy sharoitlari va shaharlar infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha qator maqsad va vazifalar belgilangan.

Bugungi yig‘ilishda bu boradagi ishlarni poytaxtda tashkil etish masalalari muhokama qilindi.

Xususan, tadbirkorlik subyektlarining investitsiya loyihalarini amalga oshirishni soddalashtirish maqsadida Toshkent shahrida aksiyadorlik jamiyati shaklida “Toshkent invest kompaniyasi” tashkil etilgan. Kompaniya bo‘sh yer uchastkalari negizida investitsiya loyihalari va davlat-xususiy sheriklik, shu jumladan, renovatsiya loyihalarini amalga oshirish bilan shug‘ullanadi.

Shu munosabat bilan davlat-xususiy sheriklik shartlarida loyihalarni amalga oshirishning soddalashtirilgan tartibi, poytaxtda renovatsiya loyihalarini amalga oshirish tartibi, “hayotiy davr shartnomasi” asosida hamkorlik qilish tartibi tasdiqlanmoqda.

Taqdimotda Yangihayot tumanining sanoat salohiyatini oshirish va yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishlarni yo‘lga qo‘yish maqsadida tashkil etilishi rejalashtirilgan “Yangi avlod” maxsus sanoat zonasi to‘g‘risida axborot berildi. 664,5 gektar maydonni egallaydigan sanoat zonasi hududida yaqin yillarda 1,5 milliard dollar miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalarini o‘zlashtirish, 2,5 mingta yangi ish o‘rni yaratish, yiliga 1 trillion so‘mdan ortiq sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va 5 million dollar miqdorida eksportni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Poytaxtda turizm xizmatlari va infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ham ko‘rib chiqildi.

Shu maqsadda Toshkentning Mirobod, Olmazor, Chilonzor, Uchtepa, Shayxontohur, Yunusobod, Yakkasaroy va Yashnobod tumanlarida tegishli chora-tadbirlar dasturini amalga oshirish rejalashtirilgan. Dasturda gastronomik turizm va “hunarmandlar” ko‘chalarini tashkil etish, zamonaviy savdo-servis obyektlari va mehmonxonalar qurish, kanallar bo‘yida yashil va dam olish hududlarini barpo etish ko‘zda tutilgan.

Bu boradagi ishlarni mahalla darajasida tashkil etish, bunda mahallalarning “o‘sish nuqtalari”ni aniqlab, muayyan faoliyat turiga ixtisoslashtirish va hududlarni ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha “Andijon tajribasi”dan keng foydalanish zarurligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari taqdim etilgan hujjat loyihalari va takliflarni ma’qullab, ularning ijrosini sifatli va samarali tashkil etish yuzasidan mutasaddilarga qator topshiriqlar berdi.

O‘zA.

Senator va hayot

Hududiy dasturlar ijrosi qanday bormoqda?

Jizzax shahrida Oliy Majlis Senati Kengashining navbatdagi sayyor majlisi bo‘lib o‘tdi. Uni Senat Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Majlisda parlament nazorati doirasida Senat ishchi guruhi tomonidan joriy yilning 12 — 14-fevral kunlari o‘tkazilgan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ijrosini o‘rganish natijalari keng muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, so‘nggi 7 yilda viloyat hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan Prezidentning 13 ta Farmon va qarori, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 40 ga yaqin qarorlari qabul qilindi.

Ushbu davrda qariyb 2,5 mlrd. dollarlik investitsiyalar jalb qilinib, 3,5 mingta yangi korxona ishga tushirilgan. Bu orqali 46,9 mingta doimiy ish o‘rni yaratilgan, mahalliy budjetda 1,1 trln. so‘mdan ziyod qo‘shimcha manba mablag‘lari shakllantirilib, hudud ixtiyorida qoldirilgan.

Viloyat iqtisodiyotidagi o‘sish sur’ati ham e’tiborga molik. Birgina 2023-yilda yalpi hududiy mahsulot hajmi 33,3 trln. so‘mni tashkil etib, 2022-yildagiga nisbatan 105 foiz o‘sgan. Bunday ijobiy holat sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar va qurilish sohalarida ham kuzatilmoqda.

Investitsiya dasturlari doirasida 760 mln. dollarlik 700 dan ziyod loyihalar ishga tushirilishi hisobiga 10 ming ish o‘rni yaratilgan. Ayni chog‘da 684,5 mln. dollarlik yoki 2022-yildagiga nisbatan qariyb 1,7 barobar ko‘p to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirilgan.

Iqtisodiy faollik natijasida qariyb 4,4 ming yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etilib, bugungi kunda ularning soni 16,7 mingtadan oshgan.

Yana bir jihat. Aholini ish bilan ta’minlash masalasiga katta e’tibor qaratilgani tufayli 157,5 ming kishi doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ish o‘rinlariga joylashtirilgan.

3

O‘zbek diplomatiyasining g‘alabasi

TURIZMNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA BUTUN DUNYOGA DA’VAT

O‘zbekiston tashabbusi bilan 2027-yil Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili, deb e’lon qilinadi

26-fevral kuni Nyu-York shahridagi BMT bosh qarorgohida tashkilot Bosh Assambleyasi tomonidan “2027-yil — Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili” rezolyutsiyasi bir ovozdan ma’qullandi.

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ilgari surilgan ushbu rezolyutsiyaga 80 dan ortiq a’zo mamlakatlar hammuallifllik qildi.

Hujjatning bosh maqsadi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil oktabrda Samarqandda bo‘lib o‘tgan BMTning Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasi sessiyasida turizm sohasining yangi muammolar va zamonaviy xatarlar oldida barqarorligi va moslashuvchanligi borasida bildirilgan fikrlariga asoslangan.

Ushbu rezolyutsiyada davlatimiz rahbari tomonidan turizmning turli sivilizatsiyalar boy madaniy merosini asrashda, tinchlik va bag‘rikenglikni mustahkamlashda, xalqlarning qadriyatlarini hurmat qilishda muhim o‘rin tutishi to‘g‘risida bayon etilgan tamoyillar mustahkamlangan.

Hujjatda ekologiya, bioxilmaxillikni asrash va atmosferaning ifloslanishini kamaytirish yo‘lida “yashil” turizmni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Rezolyutsiya 2027-yilni Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili, deb e’lon qilishni qaror qiladi hamda hukumatlar, BMT tizimidagi tuzilmalar, mintaqaviy tashkilotlar bilan birgalikda yilni muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun kompleks choralar ko‘rishga chaqiradi.

— Rezolyutsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan o‘tgan yil oktabr oyida Samarqandda bo‘lib o‘tgan BMT Butunjahon turizm tashkilotining 25-sessiyasida bildirilgan bayonotga to‘la hamohang, — deydi bu muhim hujjatning ma’qullanishini izohlar ekan mazkur tashkilot ijrochi direktori Zoritsa Uroshevich. — Rezolyutsiya barcha mamlakatlar uchun da’vat bo‘ladi, ko‘plab inqirozlar va koronavirus pandemiyasi tufayli zaiflashgan, biroq hayratlanarli yashovchanligini namoyish etgan turizm sohasini tiklash va yanada rivojlantirishga turtki beradi. Sayyohlik sektori 88 foizga tiklanishiga erishildi, 2024-yilda uning 2019-yildagi darajaga ko‘tarilishi kutilyapti. Bu xalqaro yilda amalga oshirilishi belgilangan vazifalarni to‘la ro‘yobga chiqarish uchun mustahkam poydevor yaratadi va Butunjahon turizm tashkiloti hamda a’zo davlatlarning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish borasida birgalikdagi sa’y-harakatlarini yanada kuchaytiradi. Butunjahon turizm tashkiloti mazkur rezolyutsiya samaradorligini ta’minlash maqsadida uning doirasida global miqyosda amalga oshiriladigan tegishli tadbirlarni tashkillashtirish bo‘yicha majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy axborot resursi — “BMT yangiliklari” o‘z sahifasida “Bosh Assambleya 2027-yilni Xalqaro barqaror turizm yili, deb e’lon qildi” sarlavhali maqola chop etdi. Unda mazkur hujjat qabul qilinishining ahamiyati haqida so‘z boradi. Xususan, maqolada Butunjahon turizm tashkilotining o‘tgan yil oktabrda O‘zbekistonda bo‘lib o‘tgan sessiyasi sektorni aniq ustuvorliklar atrofida uzoqqa mo‘ljallangan transformatsiya qilish bo‘yicha qarashlarning nechog‘li muhim ekanini tasdiqlaganiga urg‘u beriladi. Maqolada, shuningdek, BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning turizm global iqtisodiyotning eng yirik sektorlaridan biri sifatida madaniyatlarni bir-biriga yaqinlashtirish hamda barqaror rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratishda ulkan salohiyatga egaligi haqidagi fikrlari keltirilgan.

Rezolyutsiyada barqaror turizmni, jumladan, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, iqtisodiy o‘sish, to‘liq bandlikni ta’minlash, qishloq hududlarini rivojlantirish va qishloq aholisining yashash sharoitlarini yaxshilashga xizmat qiluvchi ekoturizmni rivojlantirish muhimligi ta’kidlanadi.

Rezolyutsiya barcha manfaatdor tomonlarga barqaror va yashovchan turizmni kambag‘allikni bartaraf etish, ayollar, yoshlar, keksalar va nogironligi borlarning ishtirokini rag‘batlantirish, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish hamda munosib ish joylari va daromad manbalarini yaratishning muhim vositasi sifatida faol ilgari surishni tavsiya etadi.

Hujjat bilan BMTning Butunjahon turizm tashkilotiga ushbu rezolyutsiyaning amalga oshirilishi yuzasidan BMT Bosh Assambleyasining 83-sessiyasida (2028-y.) axborot berish, bunda Xalqaro yil qay darajada o‘tkazilganini baholashga alohida e’tibor berish topshirildi.

Ekspertlarning fikricha, O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan rezolyutsiya turizm sanoatining global darajada yangi bosqichga ko‘tarilishini boshlab beradi.

Hujjat matnini muvofiqlashtirish bo‘yicha maslahatlashuvlarda Rossiya, Xitoy Xalq Respublikasi, AQSh, Turkiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi delegatsiyalari, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Misr, Braziliya, Argentina kabi yetakchi davlatlarning ekspertlari faol ishtirok etdi va rezolyutsiya mazmunini boyitishga muhim hissa qo‘shdi. BMTga a’zo davlatlar vakillari ushbu rezolyutsiyaning taqdim etilishi o‘z vaqtida va dolzarb ekanini qayd etdilar.

“Xalq so‘zi”.



BMTNING NYU-YORKDAGI BOSH QARORGOHIDA SAMARQAND SHAHRI SALOHIYATI TAQDIM ETILDI

BMTning Nyu-Yorkdagi bosh qarorgohida O‘zbekistonning doimiy vakolatxonasi tomonidan “Samarqandga yo‘l: 2025-yilda UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi o‘tkaziladigan manzil” mavzuida brifing uyushtirildi.

Biz va jahon

Tadbirda BMTning yuqori martabali vakillari, jumladan, Bosh kotib apparati rahbari Erl Korteney Rattrey, Bosh kotibning Bosh Assambleya va konferensiya ishlari bo‘yicha o‘rinbosari Movses Abelian, Bosh kotibning Yevropa, Amerika va Markaziy Osiyo bo‘yicha yordamchisi Miroslav Yencha, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Misr, Ozarbayjon, Armaniston, Germaniya, Fransiya, Lyuksemburg, Shveysariya, Koreya Respublikasi, Qatar, Marokash, Malayziya, Bahrayn, Ruminiya va Singapurning doimiy vakillari hamda diaspora tashkilotlari rahbarlari ishtirok etdi. Shuningdek, Samarqand viloyati hokimi o‘rinbosari Oybek Hamroyev boshchiligidagi mamlakatimiz delegatsiyasi ham qatnashdi.

3

O‘zbekiston Respublikasining QONUNI

O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga kredit majburiyatlarini bajarish tartibini takomillashtirish hamda aholining mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 17-yanvarda qabul qilingan
Senat tomonidan 2024-yil 9-fevralda ma’qullangan

Keyingi yillarda aholi va tadbirkorlik subyektlariga banklar hamda boshqa kredit tashkilotlari tomonidan ko‘rsatilayotgan moliyaviy xizmatlarni yanada kengaytirishga va ularning sifatini yaxshilashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘z navbatida kredit tashkilotlaridan kredit olgan aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan ayrim obyektiv sabablarga ko‘ra kredit to‘lovlarini to‘lash kechiktirilgan yoki ular qisman to‘langan hollarda, kredit qarzdorligini uzishning amaldagi tartibini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Shu bilan birga aholining mikromoliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabi oshib borayotganligi mikroqarz berishning eng yuqori miqdori qayta ko‘rib chiqilishini taqozo etmoqda.

(Davomi 2-betda).

O‘zbekiston Respublikasining QONUNI

“Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 19-sentabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2023-yil 20-dekabrda ma’qullangan

So‘nggi yillarda mamlakatimizda insonning qonuniy huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlashga, fuqarolarning odil sudlovga bo‘lgan ishonchini oshirishga hamda ularning malakali yuridik yordam olishga bo‘lgan huquqlari kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinib, fuqarolarga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan malakali yuridik yordam olish huquqidan to‘liq foydalanish imkoniyati yaratildi.

Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiqlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarga bunday yordam ko‘rsatish uchun jinoyat, fuqarolik ishlari va ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha hamda qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda advokatning ishtirok etishini ta’minlash tartibini belgilashga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

(Davomi 2-betda).

BOLALARNI ZO‘RAVONLIKDAN HIMOYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI YANADA MUSTAHKAMLANMOQDA

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda bir qator qonun loyihalari,jumladan,bolalarni zo‘ravonlikning barcha shaklidan himoyalashga doir munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o‘qishda konseptual jihatdan ko‘rib chiqildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktori M. Olloyorov ma’ruza qildi.

Ta’kidlanganidek, bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, hayoti va sog‘lig‘ini, qadr-qimmatini muhofaza qilish, kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik, yosh avlod jismoniy, intellektual, ma’naviy va axloqiy kamol topishiga ko‘maklashish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida qaralmoqda. Bolalar majburiy mehnatiga butunlay chek qo‘yildi, bu boradagi javobgarlik kuchaytirildi. Yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi takomillashtirildi.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasi oshirilib, maktab ta’lim tizimi tubdan isloh qilindi. Iqtidorli bolalar o‘zlarini namoyon etishi uchun shart-sharoitlar yaratildi. Prezident maktablari, maxsus ixtisoslashtirilgan maktablar, ijod maktablari va “Temurbeklar maktabi” tashkil etilganligi shular jumlasidan.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ham bolalar masalasiga ustuvorlik berildi. Alohida bob oila, bolalar va yoshlar masalasiga bag‘ishlandi.

Bolalar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilindi. Bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Oliy Majlis huzurida Bolalar ombudsmani institutining tashkil etilishi jamiyat uchun bolalar muammolariga e’tiborning muhim ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘ldi.

Qolaversa, bugungi globallashuv jarayonida axborot texnologiyalari, ayniqsa, internetning rivojlanishi bilan bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan, ular zo‘ravonlikning har qanday shaklidan himoya qilinishini ta’minlash, bu boradagi faoliyatning institutsional va huquqiy asosini tubdan takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

3

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 28-fevral

O‘zbekiston Respublikasining
QONUNI

O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga kredit majburiyatlarini bajarish tartibini takomillashtirish hamda aholining mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Mazkur Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga amalga oshirilgan to‘lov summasi qarz oluvchi jismoniy shaxsga yoki qarz oluvchi tadbirkorlik subyektiga ajratilgan mikroqarz yoki kredit bo‘yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo‘lmagan taqdirda, birinchi navbatda asosiy qarzning uzilishini, shuningdek ajratilgan kreditlar bo‘yicha qarzdorlikni undirish to‘g‘risida sudning hal qiluv qarori chiqarilganda, foizlar va neustoykani hisoblash to‘xtatilishini nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Shuningdek “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga mikroqarzning eng yuqori miqdori ellik million so‘mdan yuz million so‘mgacha oshirilishini nazarda tutuvchi o‘zgartirish kiritilmoqda.

Ushbu Qonun kredit oluvchilar uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratishga va aholining mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan 163–I-sonli va 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan 256–I-sonli qonunlari bilan tasdiqlangan **O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga** (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, 2-songa ilova, № 11–12; 1997-yil, № 2, 56-modda, № 9, 241-modda; 1998-yil, № 5–6, 102-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda, № 9, 229-modda; 2001-yil, № 1–2, 23-modda, № 9–10, 182-modda; 2002-yil, № 1, 20-modda, № 9, 165-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda, № 5, 67-modda; 2004-yil, № 1–2, 18-modda, № 5, 90-modda, № 9, 171-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 4, 154-modda, № 9, 494, 498-moddalar; 2007-yil, № 1, 3, 5-moddalar, № 4, 156, 164-moddalar, № 8, 367-modda, № 9, 416-modda, № 12, 598, 608-moddalar; 2008-yil, № 4, 192-modda, № 12, 640-modda; 2009-yil, № 9, 337-modda; 2010-yil, № 9, 335, 337, 340-moddalar; 2011-yil, № 12/2, 363, 364, 365-moddalar; 2012-yil, № 4, 106, 109-moddalar, № 12, 336-modda; 2013-yil, № 10, 263-modda; 2014-yil, № 5, 130-modda, № 12, 343-modda; 2015-yil, № 8, 310, 312-moddalar; 2016-yil, № 4, 125-modda; 2017-yil, № 4, 137-modda, № 9, 510-modda, № 12, 773-modda; 2018-yil, № 1, 4-modda, № 4, 224-modda, № 7, 433-modda, № 10, 673-modda; 2019-yil, № 3, 161, 166-moddalar, № 5, 267-modda, № 10, 671-modda, № 12, 880, 886-moddalar; 2020-yil, № 1, 3, 4-moddalar, № 10, 593-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 8, 801-modda, № 10, 968-modda; 2022-yil, № 2, 79-modda, № 3, 217, 218-moddalar, № 4, 340-modda, № 5, 464-modda, № 6, 570, 577-moddalar, № 11, 1061, 1062-moddalar; 2023-yil, № 10, 795-modda, № 11, 921-modda) quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritilsin:

1) **248-moddaning matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Amalga oshirilgan to‘lov summasi pul majburiyatini batamom bajarish uchun yetarli bo‘lmaganda, boshqa kelishuv bo‘lmasa, u eng avvalo, kreditorning ijroni olishga qaratilgan chiqimlarini, so‘ngra foizlarni, uning qolgan qismi esa – qarzning asosiy summasini uzadi, bundan ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Agar amalga oshirilgan to‘lov summasi qarz oluvchi jismoniy shaxsga yoki qarz oluvchi tadbirkorlik subyektiga ajratilgan mikroqarz yoki kredit bo‘yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo‘lmasa, qarz oluvchining qarzi quyidagi navbatda qoplanadi:

1) asosiy qarz bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik va muddati o‘tgan foiz to‘lovlari mutanosib ravishda;

2) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo‘yicha qarzdorlik;

3) neustoyka (jarima, penya);

4) kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlari”;

2) **744-modda**:

quyidagi mazmundagi **uchinchi qism** bilan to‘ldirilsin:

“Kredit bo‘yicha qarzdorlikni undirish to‘g‘risida sudning hal qiluv qarori chiqarilganda sud qarorida ko‘rsatilgan, kredit bo‘yicha undiriladigan summaga nisbatan ushbu Kodeksning 327-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida hamda 734-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan foizlar, shuningdek neustoyka hisoblanishi to‘xtatiladi”;

uchinchi qismi to‘rtinchi qism deb hisoblansin.

2-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-aprelda qabul qilingan **“Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”**gi O‘RQ–765-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2022-yil, № 4, 340-modda) **5-moddasi birinchi qismining ikkinchi xatboshisidagi** “ellik million so‘mdan oshmaydigan” degan so‘zlar “yuz million so‘mdan oshmaydigan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

3-modda. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

4-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

5-modda. Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Ushbu Qonun 1-moddasining qoidalari 2024-yil 1-yanvardan e’tiboran yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi. Bunda ushbu Qonun 1-moddasining 1-bandi qarz oluvchining mikroqarz yoki kredit bo‘yicha mazkur modda amalga kiritilguniga qadar yuzaga kelgan, bajarilmagan pul majburiyatlariga nisbatan qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasining
Prezidenti **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 27-fevral
№ O‘RQ–914

O‘zbekiston Respublikasining
QONUNI

“Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Ushbu Qonun fuqarolarning odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga hamda davlat hisobidan malakali yuridik yordam olish huquqini ta’minlashga xizmat qiladi.

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2013–XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan **O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga** (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil, № 2, 5-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 12, 269-modda; 1997-yil, № 2, 56-modda, № 9, 241-modda; 1998-yil, № 5–6, 102-modda, № 9, 181-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda, № 5, 124-modda, № 9, 229-modda; 2000-yil, № 5–6, 153-modda, № 7–8, 217-modda; 2001-yil, № 1–2, 11, 23-moddalar, № 9–10, 165, 182-moddalar; 2002-yil, № 9, 165-modda; 2003-yil, № 5, 67-modda; 2004-yil, № 1–2, 18-modda, № 9, 171-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 12, 418-modda; 2006-yil, № 6, 261-modda; 2007-yil, № 4, 166-modda, № 6, 248, 249-moddalar, № 9, 422-modda, № 12, 594, 595, 607-moddalar; 2008-yil, № 4, 177, 187-moddalar, № 9, 482, 484, 487-moddalar, № 12, 636, 641-moddalar; 2009-yil, № 1, 1-modda, № 4, 136-modda, № 9, 335-modda, № 12, 469, 470-moddalar; 2010-yil, № 6, 231-modda, № 9, 334, 336, 337, 342-moddalar, № 12, 477-modda; 2011-yil, № 4, 103, 104-moddalar, № 9, 252-modda, № 12/2, 363-modda; 2012-yil, № 1, 3-modda, № 9/2, 244-modda, № 12, 336-modda; 2014-yil, № 9, 244-modda; 2015-yil, № 8, 310, 312-moddalar, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 4, 125-modda, № 9, 276-modda, № 12, 385-modda; 2017-yil, № 3, 47-modda, № 6, 300-modda, № 9, 506, 510-moddalar, № 10, 605-modda; 2018-yil, № 1, 1, 5-moddalar, № 4, 218, 224-moddalar, № 7, 430, 431-moddalar, № 10, 679-modda; 2019-yil, № 1, 3, 5-moddalar, № 2, 47-modda, № 3, 161-modda, № 5, 259, 267-moddalar, № 7, 386-modda, № 8, 469-modda, № 9, 589, 592-moddalar, № 10, 671-modda, № 11, 787, 791-moddalar, № 12, 880, 881, 891-moddalar; 2020-yil, № 3, 204-modda, № 5, 296-modda, № 12, 689-modda; 2021-yil, № 1, 5, 11, 13, 14-moddalar, № 2, 142, 144-moddalar, 4-songa ilova, № 8, 800, 803-moddalar, № 9, 903-modda, № 10, 973-modda, № 12, 1193-modda; 2022-yil, № 2, 81-modda, № 3, 216-modda, № 4, 337-modda, № 6, 575-modda; 2023-yil, № 3, 184, 185-moddalar, № 4, 265, 269-moddalar, № 5, 319-modda) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) **50-moddaning uchinchi** va **to‘rtinchi qismlari** quyidagi mazmundagi **uchinchi – o‘n birinchi qismlar** bilan almashtirilsin:

“Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi tomonidan tanlangan himoyachining yigirma to‘rt soat ichida ishga kirishish imkoniyati bo‘lmagan hollarda, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga yoxud ularning qarindoshlariga boshqa himoyachini taklif qilishni tavsiya etadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi tanlagan himoyachi istalgan vaqtda ishga kirishishga haqlidir.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining himoyachisi sifatida davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatning ishtirok etishini ta’minlash choralarini ko‘radi.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida qaror qabul qiladi, sud esa ajrim chiqaradi va advokatning ishga kirishish vaqtini belgilaydi.

Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi “Yuridik yordam” axborot tizimiga kiritiladi.

Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokat “Yuridik yordam” axborot tizimi orqali avtomatik ravishda tanlanadi.

Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatni jalb qilishda advokatning ishda ishtirok etishi tasdiqlangan paytdan e’tiboran unga ishga kirishish uchun kamida to‘rt soat vaqt berilishi kerak.

“Yuridik yordam” axborot tizimi orqali tanlangan hamda tegishli ishda o‘zining ishtirok etishini tasdiqlagan advokat davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning qarorida yoki sudning ajrimida belgilangan muddatda ishga kirishishi shart.

“Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan hollarda advokat davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatlarning navbatchilik jadvaliga asosan ishda ishtirok etish uchun jalb qilinishi mumkin.

Advokat gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosiga ko‘ra yoki ularning roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan taklif qilingan yoxud ushbu moddaning uchinchi qismida belgilangan muddatda himoyachini taklif qilish huquqidan foydalanish niyati bildirilgan hollarda, davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatni jalb etishga yo‘l qo‘yilmaydi»;

2) **51-moddaning uchinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Agar ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan hollarda gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosiga ko‘ra yoxud ularning roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan himoyachi taklif qilinmagan bo‘lsa, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ushbu Kodeks 50-moddasining to‘rtinchi – o‘ninchi qismlarida belgilangan tartibda jinoyat ishi bo‘yicha himoyachining ishtirokini ta’minlashi shart”;

3) **60-modda to‘rtinchi qismining ikkinchi jumlasi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki jabrlanuvchining manfaatlari bilan qonuniy vakilning manfaatlari o‘zaro mos kelmagan taqdirda, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki jabrlanuvchi tarafida ishda ishtirok etish uchun xuddi o‘sha qaror yoxud ajrim bilan advokatni jalb etish choralari ko‘riladi”;

4) **476-moddaning**:

ikkinchi qismi chiqarib tashlansin;

uchinchi va **to‘rtinchi qismlari** tegishincha **ikkinchi** va **uchinchi qismlar** deb hisoblansin.

2-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2015–XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan **O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi** (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil, № 3, 6-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 9, 193-modda, № 12, 269-modda; 1996-yil, № 5–6, 69-modda, № 9, 144-modda; 1997-yil, № 2, 56-modda, № 4–5, 126-modda, № 9, 241-modda; 1998-yil, № 3, 38-modda, № 5–6, 102-modda, № 9, 181-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda, № 5, 124-modda, № 9, 229-modda; 2000-yil, № 5–6, 153-modda, № 7–8, 217-modda; 2001-yil, № 1–2, 23-modda, № 9–10, 165, 182-moddalar; 2002-yil, № 1, 20-modda, № 9, 165-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda, № 5, 67-modda, № 9–10, 149-modda; 2004-yil, № 1–2, 18-modda, № 5, 90-modda, № 9, 171-modda; 2005-yil, № 1, 18-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 9, 312-modda, № 12, 413, 417, 418-moddalar; 2006-yil, № 6, 261-modda, № 9, 498-modda, № 10, 536-modda, № 12, 656, 659-moddalar; 2007-yil, № 4, 158, 159, 164, 165-moddalar, № 9, 416, 421-moddalar, № 12, 596, 604, 607-moddalar; 2008-yil, № 4, 181, 189, 192-moddalar, № 9, 486, 488-moddalar, № 12, 640, 641-moddalar; 2009-yil, № 1, 1-modda, № 9, 334, 335, 337-moddalar, № 10, 380-modda, № 12, 462, 468, 470, 472, 474-moddalar; 2010-yil, № 5, 175, 179-moddalar, № 6, 231-modda, № 9, 335, 339, 341-moddalar, № 10, 380-modda, № 12, 468, 473, 474-moddalar; 2011-yil, № 1, 1-modda, № 4, 104, 105-moddalar, № 9, 247, 252-moddalar, № 12/2, 365-modda; 2012-yil, № 4, 108-modda, № 9/1, 242-modda, № 12, 336-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda, № 10, 263-modda; 2014-yil, № 1, 2-modda, № 5, 130-modda, № 9, 244-modda, № 12, 341, 343-moddalar; 2015-yil, № 6, 228-modda, № 8, 310, 312-moddalar, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 1, 2-modda, № 4, 125-modda, № 9, 276-modda, № 12, 383, 385-moddalar; 2017-yil, № 4, 137-modda, № 6, 300-modda, № 9, 510-modda, № 10, 605-modda; 2018-yil, № 1, 1, 4, 5-moddalar, № 4, 224-modda, № 7, 430, 431, 432-moddalar, № 10, 671, 673, 679-moddalar; 2019-yil, № 1, 1, 3, 5-moddalar, № 2, 47-modda, № 3, 161, 165, 166-moddalar, № 5, 259, 261, 267, 268-moddalar, № 7, 386-modda, № 8, 469, 471-moddalar, № 9, 591, 592-moddalar, № 10, 674, 676-moddalar, № 11, 787, 791-moddalar, № 12, 880, 891-moddalar; 2020-yil, № 1, 4-modda, № 3, 203, 204-moddalar, № 7, 449-modda, № 9, 539, 540-moddalar, № 10, 593, 596-moddalar, № 11, 651-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 5, 7, 12, 13, 14-moddalar, № 2, 142-modda, № 3, 217-modda, № 4, 290, 293-moddalar, 4-songa ilova, № 8, 800, 802, 803-moddalar, № 9, 903-modda, № 10, 966, 967, 968, 973-moddalar, № 11, 1066-modda; 2022-yil, № 1, 1, 2-moddalar, № 2, 80, 81-moddalar, № 3, 215, 216-moddalar, № 4, 337-modda, № 5, 464, 465, 466, 467-moddalar, № 8, 667-modda, № 10, 981, 984-moddalar, № 12, 1189-modda; 2023-yil, № 3, 184, 185, 188, 189-moddalar, № 4, 265, 266, 268-moddalar, № 5, 319, 320-moddalar, № 7, 533, 534, 535, 537, 539-moddalar, № 8, 634-modda) **297-moddasi** quyidagi mazmundagi **uchinchi** va **to‘rtinchi qismlar** bilan to‘ldirilsin:

“Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqayotgan vakolatli mansabdor shaxs yoki sud ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning iltimosiga ko‘ra, “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatning ishda ishtirok etishini ta’minlash choralarini ko‘rishi shart.

Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatni jalb qilishda advokatning ishda ishtirok etishi tasdiqlangan paytdan e’tiboran unga ishga kirishish uchun kamida to‘rt soat vaqt berilishi kerak”.

3-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan **“Advokatura to‘g‘risida”**gi 349–I-sonli Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, № 2, 48-modda; 2001-yil, № 1–2, 23-modda; 2003-yil, № 5, 67-modda; 2004-yil, № 1–2, 18-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 9, 312-modda; 2008-yil, № 12, 641-modda; 2009-yil, № 9, 337-modda; 2018-yil, № 10, 673-modda; 2019-yil, № 1, 3-modda, № 5, 267-modda, № 9, 591-modda; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 8, 787-modda; 2023-yil, № 8, 631-modda) quyidagi o‘zgartirishlar kiritilsin:

1) **7-moddaning beshinchi qismidagi** “Jinoyat ishida ishtirok etishga tayinlangan” degan so‘zlar “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish uchun tanlangan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

2) **11-moddaning uchinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatgan advokatga ko‘rsatilgan yuridik yordam uchun haq to‘lash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda va miqdorlarda amalga oshiriladi».

4-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-aprelda qabul qilingan 409–I-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan **O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi** (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, № 6, 175-modda; 2003-yil, № 9–10, 149-modda; 2004-yil, № 1–2, 18-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, № 6, 248-modda, № 9, 422-modda, № 12, 595-modda; 2008-yil, № 4, 187-modda, № 12, 636, 641-moddalar; 2009-yil, № 4, 136-modda, № 12, 470-modda; 2010-yil, № 9, 334-modda; 2012-yil, № 9/1, 238-modda; 2014-yil, № 9, 244-modda; 2015-yil, № 8, 310-modda; 2017-yil, № 3, 47-modda, № 10, 605-modda; 2019-yil, № 3, 165-modda, № 5, 267-modda, № 8, 469-modda, № 9, 588, 592-moddalar, № 12, 880-modda; 2020-yil, № 6, 337-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 11, 1061-modda, № 12, 1193-modda; 2022-yil, № 5, 464-modda; 2023-yil, № 2, 104-modda, № 3, 187-modda, № 4, 269-modda) **10-moddasiga** quyidagi qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritilsin:

quyidagi mazmundagi **ikkinchi qism** bilan to‘ldirilsin:

“Jazoni va jinoyat-huquqiy ta’sir ko‘rsatishning boshqa choralarini ijro etuvchi muassasalar hamda organlarning vakolatli mansabdor shaxsi sudning hukmlari, ajrimlari va qarorlarini qayta ko‘rib chiqishda, shuningdek ularni ijro etish bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatning «Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ishtirok etishini davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega bo‘lgan mahkumning iltimosiga ko‘ra ta’minlash choralarini ko‘rishi shart. Boshqa hollarda mahkum davlat hisobidan yuridik yordam olish uchun “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida ko‘rsatilgan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilishi mumkin”;

ikkinchi – oltinchi qismlar tegishincha **uchinchi – yettinchi qismlar** deb hisoblansin.

5-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 22-yanvarda qabul qilingan O‘RQ–460-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan **O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi** (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, 1-songa 1-ilova, № 10, 672-modda; 2019-yil, № 3, 166-modda, № 5, 261-modda, № 9, 592-modda, № 10, 671-modda, № 11, 791, 792-moddalar, № 12, 880-modda; 2020-yil, № 1, 1, 3-moddalar, № 3, 198, 199-moddalar; 2021-yil, № 1, 8-modda, 4-songa ilova, № 8, 803-modda, № 9, 903-modda; 2022-yil, № 3, 216-modda, № 8, 787-modda; 2023-yil, № 4, 269-modda) **67-moddasi** quyidagi mazmundagi **to‘rtinchi** va **beshinchi qismlar** bilan to‘ldirilsin:

“Sud da’vogarning yoki javobgarning iltimosiga ko‘ra, “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatning ishtirok etishini ta’minlash choralarini ko‘rishi shart.

Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokat jalb etiladigan paytga qadar sud ishning muhokamasini keyinga qoldiradi. Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatni jalb qilishda advokatning ishda ishtirok etishi tasdiqlangan paytdan e’tiboran unga ishga kirishish uchun kamida to‘rt soat vaqt berilishi kerak”.

6-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 25-yanvarda qabul qilingan O‘RQ–462-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan **O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi** (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, 1-songa 3-ilova, № 10, 672-modda; 2019-yil, № 5, 261-modda, № 9, 592-modda, № 11, 791-modda, № 12, 880-modda; 2020-yil, № 1, 1-modda, № 3, 198-modda; 2021-yil, № 1, 9-modda, 4-songa ilova, № 8, 800, 803-moddalar, № 9, 903-modda; 2022-yil, № 8, 787-modda, № 12, 1188-modda; 2023-yil, № 3, 185-modda, № 4, 269-modda) **60-moddasi** quyidagi mazmundagi **to‘rtinchi** va **beshinchi qismlar** bilan to‘ldirilsin:

“Sud arizachining iltimosiga ko‘ra, “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatning ishtirok etishini ta’minlash choralarini ko‘rishi shart.

Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokat jalb etiladigan paytga qadar sud ishning muhokamasini keyinga qoldiradi. Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatni jalb qilishda advokatning ishda ishtirok etishi tasdiqlangan paytdan e’tiboran unga ishga kirishish uchun kamida to‘rt soat vaqt berilishi kerak”.

7-modda. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-mayda qabul qilingan **“Psixiatriya yordami to‘g‘risida”**gi O‘RQ–690-sonli Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, № 5, 415-modda) **10-moddasining to‘rtinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Shaxslar psixiatriya yordamini olayotganda “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega”.

8-modda. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

9-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

10-modda. Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining
Prezidenti **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 27-fevral
№ O‘RQ–915

Hududiy dasturlar ijrosi qanday bormoqda?

1 Muhokama jarayonida senatorlar hududda amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan birga hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar borligiga ham alohida to‘xtalib o‘tdilar.

Misol uchun, Do‘stlik hamda Zarbdor tumanlarida bo‘sh turgan davlat obyektlariga tadbirkorlarni jalb qilgan holda yangi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlarini ochish ishlari sust tashkil etilgan. Eksport prognoz ko‘rsatkichlari Zafarobod va Yangiobod tumanlarida 30 foizga ham bajarilmagan.

Viloyat hududlarida ochilgan yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari bosh rejasi bugungi kunga qadar ishlab chiqilmagan. Qolaversa, shu sanoat zonalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta’minlash borasida ham o‘z yechimini kutib turgan masalalar yo‘q emas.

Majlisda senatorlar tomonidan mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha qator taklif hamda tavsiyalar bildirildi.

Kam ta’minlangan qatlam, xususan, “temir daftar”, “ayollar daftari” va “yoshlar daftari”ga kiritilgan aholi muammolarini xonadonbay hal qilish bo‘yicha ishlarni tizimli holda davom ettirish, oliy darajadagi tashriflar doirasida imzolangan savdo-iqtisodiy kelishuvlar bo‘yicha tasdiqlangan “yo‘l xaritalari” ijrosi samarali amalga oshirilishini ta’minlash shular jumlasidandir.

Shuningdek, xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari har oyda dasturlar doirasida belgilangan vazifalar ijrosiga mas’ul idoralarning amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risidagi hisobotlarini eshitishi, bu borada mas’uliyatsizlikka yo‘l qo‘ygan mutasaddilarga nisbatan ta’sirchan choralar ko‘rishi zarurligiga urg‘u berildi.

Muhokama yakunida Senat Kengashining mavjud muammoli masalalarni bartaraf qilish va kelgusida viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining ijrosini samarali tashkil etish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni tasdiqlash yuzasidan tegishli qarori qabul qilindi.

“Xalq so‘zi”.

Muloqot

Delegatsiyamiz YXHT Parlament Assambleyasi qishki sessiyasida qatnashdi

Yaqinda Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar,tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi raisi R. Alimov boshchiligidagi O‘zbekiston parlamenti delegatsiyasi Vena shahri (Avstriya)da bo‘lib o‘tgan YXHT Parlament Assambleyasi qishki sessiyasida qatnashdi.

Tadbirda YXHTning 52 ta ishtirokchi davlatidan 330 dan ortiq parlament a’zolari va hamkorlik bo‘yicha sheriklar qatnashdi. Sessiya doirasida assambleyalarning uchta doimiy qo‘mitasi majlisi hamda “Yevropa xavfsizligi bugun va ertaga: YXHT kelajagi bo‘yicha parlament qarashlari” mavzuida yalpi sessiya bo‘lib o‘tdi.

Qishki sessiyada O‘zbekiston delegatsiyasi a’zolarining ma’ruzalari tinglandi hamda ular xorijiy parlamentariylar va YXHT tuzilmalari vakillariga YXHT saylov standartlarini milliy qonunchilik amaliyotiga joriy etish, mamlakatimizdagi iqtisodiy o‘sishning “yashil” omili to‘g‘risida ma’lumot berishdi.

Bundan tashqari, Oliy Majlis vakillari YXHT PA Terrorizmga qarshi kurash maxsus qo‘mitasining navbatdagi majlisida ham ishtirok etdi. Unda terrorizm va ekstremizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish, ushbu chaqiriq va tahdidlardan jabrlanganlarni reabilitatsiya qilish borasida atroflicha fikr va tajriba almashildi.

O‘zbekiston delegatsiyasining tashrifi davomida YXHT PA maxsus vakillari bilan ikki tomonlama qator uchrashuvlar o‘tkazildi. Ularda mamlakatimizning YXHT doirasidagi o‘zaro hamkorligining hozirgi holati va istiqbollari muhokama qilindi.

Mezbon tomoni O‘zbekistondagi islohotlarni yuqori baholab, ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun har jihatdan yordam ko‘rsatishga tayyor ekanligini bildirdi.

“Xalq so‘zi”.

BMTNING NYU-YORKDAGI BOSH QARORGOHIDA SAMARQAND SHAHRI SALOHIYATI TAQDIM ETILDI

1 Ishtirokchilarga UNESCO Bosh konferensiyasini yuqori tashkiliy va mazmunan boy tarzda o‘tkazish uchun Samarqand shahrida yaratilgan shart-sharoitlar haqida batafsil ma’lumot berildi. Tadbirkorlik va madaniy, tibbiy va gastronomik turizm obyektlarini o‘zida mujassam etgan yangi “Ipak yo‘li” majmuasining imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratildi. Ishtirokchilar, shuningdek, Samarqandning iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyati bilan ham yaqindan tanishdilar.

Ta’kidlanganidek, so‘nggi yillarda qadimiy va betakror Samarqand bir qator dolzarb masalalar yuzasidan global muloqot markaziga aylandi. So‘nggi olti oy ichida shaharda BMT mandati ostida uchta forum bo‘lib o‘tdi. Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining 25-sessiyasi, BMTning Cho‘llanishga qarshi kurash konvensiyasini ko‘rib chiqish qo‘mitasining 21-yig‘ilishi va BMTning Yovvoyi hayvonlarning ko‘chib yuruvchi turlarini saqlab qolishga doir konvensiyasi (CMS COP14) tomonlar konferensiyasining 14-yig‘ilishi shular jumlasidandir.

Samarqand 1985-yildan buyon UNESCO Bosh konferensiyasi uning bosh qarorgohidan tashqarida o‘tkaziladigan ilk mezbon shaharga aylanishi ta’kidlandi. Tashkilotning asosiy qadriyatlarini targ‘ib etishga ulkan hissa qo‘shishga qaratilgan ushbu nufuzli xalqaro forumni muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun barcha sa’y-harakatlarni safarbar etish bo‘yicha O‘zbekiston hukumatining qat’iy intilishi alohida urg‘ulandi.

Brifing ishtirokchilari O‘zbekistonda hayotning barcha jabhasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlar, UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasini muvaffaqiyatli o‘tkazish borasidagi sa’y-harakatlarni yuqori baholadi. Samarqandda xalqaro forumlarni yuqori saviyada tashkil etish uchun yaratilgan infratuzilma va boshqa imkoniyatlar haqida ijobiy fikrlar bildirildi. Samarqand sessiyasi UNESCO tarixidagi noyob voqea bo‘lib, sivilizatsiyalar va madaniyatlar o‘rtasidagi rang-baranglik va muloqot ramziga aylanishiga ishonch bildirildi.

Ishtirokchilar o‘z chiqishlarida UNESCOning Samarqandda bo‘lib o‘tadigan sessiyasi haqida o‘zlarining fikrlarini bildirdi.

Miroslav YENCHA,
BMT Bosh kotibining Yevropa, Amerika va Markaziy Osiyo bo‘yicha yordamchisi:

— Eng avvalo, UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi Samarqandda o‘tkazilishi bo‘yicha ushbu muhim tashabbusni ilgari surgan O‘zbekiston Prezidentini tabriklashdan mamnunman. Aytish mumkinki, bu — BMT tizimidagi asosiy tuzilma hisoblangan UNESCO faoliyatidagi muhim qadam. Tashkilotning navbatdagi Bosh konferensiyasi go‘zal Samarqand shahrida bo‘lib o‘tishi bizga katta quvonch bag‘ishlaydi.

O‘tgan yili O‘zbekistonga tashrif chog‘ida Samarqandni ziyorat qilish imkoniga ega bo‘ldim va tez o‘zgarib, yanada obod bo‘lib borayotgan shaharning zamonaviy qiyofasi meni hayratga soldi. Ishonchim komilki, UNESCO Bosh konferensiyasi bo‘lajak sessiyasining ishtirokchilari bu tadbirdan olam-olam taassurot oladi.

Yevangelos SEKERIS,
Gretsiyaning BMTdagi doimiy vakili:

— UNESCO Bosh konferensiyasining navbatdagi sessiyasi 2025-yilda Samarqandda o‘tkazilishi munosabati bilan Gretsiyaning BMTdagi doimiy vakolatxonasi nomidan O‘zbekistonning doimiy vakolatxonasini va Samarqand shahri rahbariyatini qutlayman.

O‘ylaymanki, bu qadimiy shaharning ahamiyati, shuningdek, O‘zbekiston nafaqat BMT doirasida Yevropa Ittifoqi bilan, balki mening yurtim Gretsiya bilan ham ikki tomonlama asosda davom etayotgan munosabatlar darajasini ko‘rsatish uchun noyob imkoniyatdir.

E’tiborlisi, yaqinda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida Toshkentda elchixona ochish niyatimizni bildirdik va bu bizga mamnuniyat bag‘ishlaydi. Shuningdek, biz O‘zbekiston bilan BMT platformasida yaqin hamkorlik qilamiz va 2025-yilda Samarqanddagi UNESCO tadbiri muhim voqea bo‘lishiga ishonamiz.

Fursatdan foydalanib, O‘zbekiston rahbariyati va xalqiga mamlakat uchun muhim voqea bo‘lishi kutilayotgan mazkur tadbir munosabati bilan samimiy tabriklarimni yo‘llayman.

Abdulaziz Al-VASIL,
Saudiya Arabistonining BMTdagi doimiy vakili:

— 2025-yilda UNESCOning 43-Bosh konferensiyasi bo‘lib o‘tadigan Samarqand shahrining bugungi taqdimotida qatnashganimdan g‘oyat mamnunman.

E’tirof etish joizki, Samarqand jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan noyob madaniy-tarixiy merosi bilan dunyo mintaqalarida juda mashhur.

Men O‘zbekiston navbatdagi Samarqand anjumanini yuqori saviyada o‘tkazishiga ishonaman. Saudiya Arabistoni hukumati O‘zbekistonning UNESCO va umuman, BMTdagi sa’y-harakatlarini qat’iy qo‘llab-quvvatlaydi.

Usama ABDULHOLIQ,
Misrning BMTdagi doimiy vakili:

— O‘zbekiston doimiy vakolatxonasi tomonidan tashkil etilgan bugungi tadbirda ishtirok etish va Samarqand viloyati rahbariyati bilan uchrashish men uchun sharafdir.

Samarqandning UNESCO Bosh konferensiyasiga mezbonligini qo‘llab-quvvatlash juda muhim, deb hisoblayman. O‘zbekiston bilan Misr turli sohalarda va xalqaro tashkilotlar doirasida juda yaqin hamkorlik qiladi. Biz O‘zbekistonning bunday muhim tadbirga mezbonlik qilish niyatini qo‘llab-quvvatlashdan mamnunmiz.

Ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ko‘plab yuqori darajadagi tadbirlar o‘tkazilib kelinmoqda, bu mamlakatingizning tinchlik va barqarorlikni ta’minlash sohasida, jumladan, BMT doirasida yaqin hamkorlikka intilishini tasdiqlaydi.

Biz Misrda O‘zbekiston bilan hamkorlikni yuksak qadrlaymiz. Mamlakatingiz mintaqada barqarorlik namunasi va omilidir. Misr ko‘p qirrali munosabatlarni yanada chuqurlashtirish tarafdori. Ayni chog‘da BMTda ham o‘zbekistonlik hamkasblarimiz bilan yaqin hamkorlik qilayotganimizni, bir-birimizning tashabbus va qarorlarimizni qo‘llab-quvvatlayotganimizni alohida ta’kidlamoqchiman.

Fursatdan foydalanib, barcha qardosh va do‘st O‘zbekiston xalqiga ezgu tilaklarimni bildiraman.

“Dunyo” AA.
Nyu-York

BOLALARNI ZO‘RAVONLIKDAN HIMOYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI YANADA MUSTAHKAMLANMOQDA

1 Majlisda ko‘rilgan qonun loyihasi bilan bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish faoliyatini bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar, ularning vakolatlari aniq belgilanmoqda. Bunda bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish faoliyatini bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya tomonidan muvofiqlashtirilishi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi komissiyaning ishchi organi, qolaversa, qonun ijrosini ta’minlash bo‘yicha vakolatli organ etib belgilanishi taklif etilmoqda.

Shuningdek, qonun loyihasida bolalarga nisbatan zo‘ravonlik shakllariga ta’rif berilib, ularni sodir etishni taqiqlash, qonunga binoan ta’qib qilishning huquqiy asoslarini mustahkamlash ko‘zda tutilmoqda. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik shakllari amaldagi uchtadan (jismoniy, jinsiy, ruhiy) oltitaga (g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik, ekspluatatsiya, bulling) oshirilyapti.

Mazkur qonun loyihasi bilan ilk bor yangi institut joriy qilinyapti. Ya’ni endilikda bolalarga ham himoya orderi berish taklif etilmoqda.

Bundan tashqari, loyihada bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishda ota-onalarning ishtiroki va ularning majburiyatlari belgilab qo‘yilayotir. Jumladan, ota-onalar bolalarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishi, ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatishi hamda zararli ta’sir ko‘rsatuvchi axborotdan himoya qilishi shartligi, bolalarni tarbiyalashda ularni jismoniy jazolash taqiqlanishi nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasida ta’lim tashkilotlarida bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka, intizomiy jazo chorasi sifatida zo‘ravonlikning har qanday shakli, shu jumladan, jismoniy jazo va boshqa shafqatsiz xatti-harakatlarni amalga oshirish yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomalani qo‘llashga yo‘l qo‘yilmasligi qat’iy belgilanmoqda.

Majlisda ta’kidlanganidek, zo‘ravonlik xavfi ostida bo‘lgan bolalar toifalari (yetim, nazoratsiz, aqliy rivojlanishda nuqsoni bor, fohishalik, tilanchilik bilan shug‘ullanayotgan bolalar) qonun loyihasida aniq belgilab berilganligi, sohadagi vakolatli organlarga zo‘ravonlikdan jabrlangan, zo‘ravonlik xavfi ostida bo‘lgan bolalarni aniqlash, ularning hisobini yuritish hamda zarur hollarda ularga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olishga doir yakka tartibdagi chora-tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirishiga yordam beradi.

Loyihada zo‘ravonlikdan jabrlangan bolalarning huquqlari hamda ularni zo‘ravonlikdan himoya qilishning umumiy va yakka tartibdagi chora-tadbirlari belgilanmoqda. Xususan, zo‘ravonlik qurbonining murojaati, jismoniy yoki yuridik shaxslarning xabarlari, ommaviy axborot vositalari, internet jahon axborot tarmog‘i, ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishning yakka tartibdagi chora-tadbirlarini qo‘llash uchun asos bo‘ladi.

Deputatlarning ta’kidlashicha, loyihaning qabul qilinishi bolalarni zo‘ravonlikning barcha shaklidan himoya qilish borasidagi munosabatlarni tartibga solish, bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish, ularni hurmat qilishning huquqiy asosini takomillashtirish, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlariga murosasiz munosabatda bo‘lish, zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarga nisbatan javobgarlik muqarrarligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Majlisda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov qonun loyihasi yuzasidan o‘z munosabatini bildirar ekan, bu jarayonda jamoatchilik taklifini o‘rganish muhim ekanligini ta’kidladi. Muhokama ochiq-oshkora bo‘lishi, har bir deputatning taklifi ko‘rib chiqilishi va ahamiyatga moliklari e’tiborga olinishi kerakligi ham aytib o‘tildi.

Shuningdek, siyosiy partiyalar fraksiyalari rahbarlari ham qonun loyihasi yuzasidan o‘z nuqtayi nazarini bildirdi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda konseptual jihatdan bir ovozdan qabul qilindi. Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasiga qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlash vazifasi yuklatildi.

Fraksiyalar nuqtayi nazari

Alisher QODIROV,
O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi rahbari:

— Ushbu qonun loyihasining tashabbus qilinishi yangi O‘zbekiston islohotlaridagi ustuvor vazifalar sifatida belgilangan ta’lim, tarbiya, oila institutini takomillashtirish maqsadlarining izchil va bevosita davomi sifatida qabul qilinishi kerak. Bu, shuningdek, aholisining ko‘pchilik qismini yoshlar tashkil qiladigan kam sonli davlatlardan biri sifatida O‘zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega masala hamdir. Biz ta’lim, tarbiya sohasida juda katta islohotlarni amalga oshiryapmiz. Va ayni jarayonlar katta kamchiligimizni ko‘rsatib qo‘ydiki, biz aslida hal qilmoqchi bo‘lgan masala bola tarbiyasi bilan bog‘liq ekanligi ayon bo‘ldi.

“Bugun nima uchun yoshlar orasida jinoyatchilik uchrayapti?”, “Nima uchun farzandlarimizda agressivlik namoyon bo‘layotir?”, “Nimaga ularda ilmga, ma’rifatga bo‘lgan ishtiyoq ajdodlarimizda bo‘lgani kabi emas?” degan savollarga mana shu yerda javob topishimiz kerak. Biz bolaga nafaqat to‘g‘ri tarbiya bera olmayapmiz, balki unga zo‘ravonlik ko‘rsatyapmiz: oilada bolaning fikri umuman hisobga olinmaydi, bog‘chada bola erkin gapirolmaydi.

Bu biz uchun davlatchilik, milliy taraqqiyot hamda mamlakatimizning kelajagini hal qilish masalasi ekanligini unutmagan holda qonun loyihasining konsepsiyasini qo‘llab-quvvatlash naqadar muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidlamoqchiman. O‘zbekistonning qudratli davlat bo‘lishini xohlasak, farzandlarimizni zo‘ravonlikning barcha shaklidan himoya qilishimiz, ularga to‘g‘ri tarbiya berishimiz kerak. Shu sababli qonun loyihasiga juda jiddiy yondashishimiz zarur. Qonun loyihasini takomillashtirish bo‘yicha fraksiyalar o‘z taklifini berishi lozim. Ayniqsa, ta’lim va tarbiya masalalari ustuvor hisoblangan “Milliy tiklanish” DP bu qonun loyihasiga katta e’tibor bilan yondashadi hamda ushbu hujjatni bugungi kunda jamiyatimizning eng katta muammolaridan birini bartaraf qilishda zarur bo‘lgan qonun sifatida o‘z takliflarini beradi.

Zuhra IBRAGIMOVA,
O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi rahbari:

— Ta’kidlash lozimki, so‘nggi besh yilda O‘zbekistonda har yili o‘rta hisobda salkam 1 millionga yaqin bolalar dunyoga kelyapti. Masalan, 2019-yilda mamlakatimizda 815 mingga yaqin bolalar tug‘ilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 968 ming nafardan oshgan. Bu esa davlatning o‘z oldiga olgan vazifalari va kafolatlarining bajarilishi jarayonini jadallashtirishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda bola huquqlari va erkinliklarini himoya qilish borasida salmoqli islohotlar amalga oshirilmoqda. Birgina maktabgacha ta’lim sohasidagi islohotlar natijasida bolalarni maktabgacha ta’limga qamrab olish darajasi 74 foizga ko‘tarilganini e’tirof etish kerak.

O‘tgan kuni bo‘lib o‘tgan fraksiyamiz yig‘ilishida bu qonun loyihasini konseptual jihatdan ko‘rib chiqdik va qo‘llab-quvvatladik. Fikrimizcha, davlat bola huquqlarini ta’minlash borasida o‘z zimmasidagi vazifani bajarayotgan bir paytda ota-onalar ham farzandi oldidagi majburiyatlarini to‘laqonli bajarishi lozim. Qonun loyihasining maqsadi ham shundan iborat.

Ulug‘bek INOYATOV,
O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi rahbari:

— Bugungi kunda O‘zbekiston bolalarni ijtimoiy himoya qilish, ularning ta’lim-tarbiyasiga e’tibor qaratish, sog‘lig‘ining muhofazasi va umuman, kelajakda ular mamlakatimizning asosiy tayanchi bo‘lishi uchun barcha shart-sharoitni yaratmoqda. So‘nggi yillarda qabul qilingan ko‘plab qonunlarni bunga misol qilib keltirish mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, muhokama qilingan qonun loyihasini ham ushbu siyosatning uzviy davomi deb qarashimiz kerak. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham alohida bob kiritilgani va ushbu bob oila, bolalar va yoshlarga bag‘ishlangani e’tiborga molik.

Xususan, 78-moddada bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, ularning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlar yaratish davlatning asosiy vazifasi ekanligi belgilab berildi.

Ushbu qonun loyihasida, birinchidan, bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berilyapti. Ikkinchidan, vakolatli organ belgilanmoqda. Uchinchidan, zo‘ravonlikka yoki qonun buzilishiga uchragan farzandlarimizni himoya qilish mexanizmlari ochib berilyapti.

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining asosiy g‘oyasi bo‘lgan ijtimoiy tenglik, ijtimoiy adolat prinsiplariga asosan ushbu qonun loyihasi ishlab chiqilgan bo‘lib, fraksiyamiz uni birinchi o‘qishda konseptual jihatdan qo‘llab-quvvatladi.

Xayrullo G‘AFFOROV,
O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi rahbari:

— Darhaqiqat, mamlakatimizda milliy qadriyatlar va an’analar asosida bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish bo‘yicha mukammal huquqiy baza yaratilgan. Sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar ilg‘or xorijiy tajriba va xalqaro konvensiyalar asosida sayqallanganini alohida ta’kidlash lozim.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham bolalarning huquqlari bo‘yicha bir qator normalar kiritilgani hamda Bola huquqlari bo‘yicha Ombudsman institutining joriy etilgani bu boradagi izchil islohotlarning davom etayotganligidan dalolat beradi.

Muhokama qilingan qonun loyihasi bola huquqlari kafolatlarining huquqiy asosini yanada takomillashtirishga qaratilgani bilan ahamiyatli. Ayniqsa, loyihada bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilanayotgani, bu borada faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlari vakolatlari aniqlashtirilayotgani, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olishga doir umumiy va yakka tartibdagi chora-tadbirlar aniq aks ettirilayotgani bolalarga nisbatan sodir etilayotgan zo‘ravonliklarning oldini olish hamda jabrlanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda o‘z samarasini berishi, shubhasiz.

Shuhrat BAFOYEV,
Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasi raisi (O‘zLiDeP fraksiyasi a’zosi):

— O‘zbekistonda har yili 900 ming, salkam bir million nafar bolalar dunyoga keladi. Ularning huquqlari va manfaatlarini kim ta’minlaydi? Albatta, davlat.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 78-moddasida davlatga bolaning huquqlarini ta’minlashda majburiyat yuklatilganligi ularning bu borada yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish va yaxlit tizimni shakllantirish zaruratini yuzaga keltirdi. Prezidentimiz raisligida yaqinda ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida qayd etilganidek, bolani, umuman, insonlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi tubdan o‘zgarishi kerak. Ushbu qonun loyihasining qabul qilinishi yangi tizimni yaratadi.

Ma’lumki, O‘zbekiston bolalar huquqlarini himoya qilishga oid bir qator xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan mamlakat sifatida ushbu hujjatlardagi normalarni milliy qonunchiligimizga bosqichma-bosqich implementatsiya qilish majburiyatini o‘z zimmasiga olgan. 2021-yildan boshlab Oliy Majlisning inson huquqlari sohasida O‘zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlariga rioya etilishi bo‘yicha parlament komissiyasi ishlab turibdi. Biz muntazam ravishda Parlament komissiyasi yig‘ilishlarida tegishli tashkilotlar hisobotlarini eshitib bormoqdamiz. 2022-yili BMTning Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasiga “O‘zbekiston Respublikasining Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya qoidalarining bajarilishi yuzasidan Beshinchi davriy ma’ruzasi” taqdim etilgandi. Davriy ma’ruza yuzasidan BMTning Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi o‘z tavsiyalarini bergan. Ushbu tavsiyalar Parlament komissiyasida ko‘rib chiqilib, tegishli qaror asosida milliy harakatlar rejasi tasdiqlandi.

Umuman aytganda, bola huquqlarini himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan paytda parlament bu borada peshqadam bo‘lishi kerak. Qolaversa, hududlardagi uchrashuvlarda ushbu qonun loyihasining mazmun-mohiyatini saylovchilarga yetkazishda yanada faol bo‘lishimiz maqsadga muvofiq.

“Xalq so‘zi”.

“Xalq so‘zi” va “Narodnoye slovo” gazetalari ijodiy jamoasi “Xalq so‘zi” gazetasi xodimi Muhiddin Saidakramovga onasi

Shohista MUHIDDINOVAning

vafoti munosabati bilan chuqur ta’ziya izhor etadi.

“ERIELL Prof Education” nodavlat ta’lim muassasasi jamoasi muassasa direktorining sobiq o‘rinbosari

Bahodir QAYUMOVning

vafoti munosabati bilan marhumning oila a’zolari va yaqinlariga chuqur ta’ziya izhor etadi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 28-fevral

ONALIK BAXTI VA MAS’ULIYATI

Xotin-qizlar bilan ishlashda javobgarlikni yanada oshirish — davr talabi

Qishloqdagi qarindoshlar hovlisida bo‘lib o‘tgan voqeani so‘zlab berishdi: yangi jo‘jalar orasida oyog‘i tappoq, tumshug‘i sap-sariq mitticha ham bor edi. Tovuq bosib yotgan tuxumlar orasiga o‘rdakning tuxumi aralashib qolganini hamma tushundi, lekin ona tovuq uchun buning zarracha ahamiyati yo‘q, u barcha jo‘jalarga birdek parvona, mehribon, himoyachi edi. Faqat o‘rdakcha ona tovuqni ko‘p behalovat qilar, orqasidan “chiy-chiy”lab ergashib yurgan jo‘jalardan ajralib, hovli devori oldidan oqayotgan ariq tomon yurganda, ona tovuq bezovta “qa-qag‘”lay boshlardi. O‘rdakcha beparvo “cho‘lp” etib suvga tushib suza boshlar, ona tovuq ariq labida unga yonma-yon chopib, dunyoni oyoqqa turg‘azmoqchi bo‘lardi...

Bu holni onalik tuyg‘usi, mas’uliyati yo saodati deb atash mumkin! Parvardigori olam bir jonivorning jismiga shunchalar mo‘jizani joylagan ekan, insonlarga ato etgan onalik martabasiga ta’rif bormikin?..

Dolzarb mavzu

Ijtimoiy tarmoqda kuzatganim mana bu xabarlar beixtiyor yuqoridagi voqeani yodga soldi:

“Guliston shahrida... Buxoro viloyatida tug‘ilgan, Guliston shahrida vaqtincha yashovchi ayol joriy yilning 30-yanvar kuni tug‘ilgan o‘g‘il farzandini 40 ming AQSh dollariga sotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlangan”.

“Termiz tumanida yashovchi ayol joriy yilning 25-yanvar kuni tug‘ilgan qiz farzandini o‘zining jinoiy sherigi bo‘lgan ayol bilan til biriktirib, Termiz shahrida 25 mln. so‘mga sotgan vaqtida ushlangan”.

“Chirchiq shahrida yashovchi ayol o‘zining 2018-yilda tug‘ilgan o‘g‘lini Toshkent shahrida 3 ming AQSh dollariga sotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan qo‘lga olingan”.

“Namangan shahrida yashovchi ayol o‘zining 2014-yilda tug‘ilgan o‘g‘lini 18 ming AQSh dollariga sotishga kelishib, talab qilingan puldan 4 ming AQSh dollarini olgan vaqtida ushlangan”.

Huquq-tartibot idoralari tomonidan tasdiqlangan, ayni kunda yon-atrofimizda yuz bergan jinoyatlar... Afsuski, yangilik emas, afsuski, qonuniy jazolar qo‘llanayotgan esa-da, tuzalishning o‘rniga gazaklab borayotgan, ijtimoiy muammoga aylanayotgan va agar yechim-davo topilmasa, achchiq oqibatlarga olib keladigan dard-og‘riqlarimiz...

Kechirilmas illat

Mamlakatimizda har bir inson hayotdan rozi bo‘lib yashashi uchun moddiy va ma’naviy imkoniyat, sharoitlar yaratish Prezidentimiz, davlatimiz ichki siyosatining bosh yo‘nalishlaridan bo‘lishi uchun jiddiy islohotlar amalga oshirilyapti. Shunday davrda himoya, parvarish, mehr-muhabbatga hammadan ko‘proq haqli va muhtoj bolajonlardan ayrimlarining o‘z onasi tomonidan bir buyum, narsadek sotib yuborilishi, tan olishimiz kerak, jamiyat uchun kechirilmas illat, desa bo‘lar. Fikrimizga e’tiroz bildirguvchilar oz emas. Ya’ni “Bolasini sotgan bir bemehr, farzand qadrini bilmas toshbag‘ir, onalikka nomunosib bo‘lsa, boshqalarning nima aybi bor?”

Jamiyat — misoli bir ulkan vujud. Uning har bir nuqtasidagi ijobiy yoki salbiy o‘zgarish tananing umumiy holati bilan bevosita bog‘liq. O‘ylab ko‘raylik, ayol o‘z jonining bir parchasi bo‘lgan dilbandini pul-boylik evaziga sotib yuborishi qaysi davrlardan boshlandi? O‘tgan asrdagi urush va undan keyingi ochlik, qahatchilik zamonlari, XX asrda sovet tuzumining qatag‘onlari avj olgan (xalqning ziyoli oydinlaridan tortib moddiy-ma’naviy boyliklarigacha talab-tashib ketilgan, yoqib-yanchilgan) mash’um yillar... To‘g‘ri, o‘sha zamonlarda bitta-yarimta chorasizlar o‘zi tirik qolishiga ham ko‘zi yetmagach, boshqa iloji yo‘qligidan bolasini ishonchli insonlarga bergani haqida eshitganmiz, o‘qiganmiz. Ammo egnida kiyimi, dasturxonida noni, ishlab daromad topishga imkoni, hech bo‘lmaganda, atrofida maslahat yoki yordam so‘rashi mumkin bo‘lgan odamlar bo‘la turib bolasini sotganini bilmaymiz. Aslida parrandayu darrandalar, hayvonlar, yirtqichlar-da bu qabohatdan yiroq.

Bir necha o‘n yilliklardan buyon ommaviy axborot vositalarida yoziladi, tahlil qilinadi. El orasida ham ozmuncha muhokama bo‘lmaydi. Bolasini sotgan onalar ta’rifida ayol zotiga nomunosib qanchadan-qancha so‘zlar aytildi: “sadqai onalik nomi”, “sharmanda”, “yengil-yelpi” va hokazo... Lekin samara yo‘q... Shu o‘rinda mulohaza qilib ko‘rsak: og‘ir dardga chalingan insonni davolash uchun uning qulog‘iga: “Sen yomon kasalsan, sening bu holating yaxshi emas, sen bu kasaldan tuzalishing kerak”, degan gaplar quyilishidan zarra naf bo‘lmaydi. Balki bemorning taqdiri ayni dardning kelib chiqishi, belgilari, asoratlari, davo usullarini yaxshi bilgan shifokorga topshiriladi va kasal odamdan uning tavsiyalariga amal qilish talab etiladi.

Bizningcha, odamfurushlik, onalarning o‘z bolasini sotishi ham jiddiy ijtimoiy dardga aylandi. Ularning hammasi haqida birdek xulosa chiqarib, muolajasi uchun qolipga tushgan maslahat berib bo‘lmaydi. Uning kelib chiqish sabablari, rivojlanishi, belgilari ijtimoiy tadqiqotlar asosida o‘rganilib, oldini olish choralari ko‘rilsagina, begunoh bolajonlar bozordagi buyum kabi har xil odamlar qo‘liga tushib qolishining oldi olinishi mumkin.

Mustaqilligimiz arafasidan toki shu kunlargacha bizning mamlakatimiz hayotida (istiqlolga erishgan barcha davlatlarda bo‘lgani kabi) ayrim iqtisodiy yetishmovchilik, o‘tish davri sinovlari bo‘ldi. Ilohim, o‘tgan asr guvohlari — bobolarimiz, momolarimiz, ota-onalarimiz so‘zlab bergan qiyinchiliklar yangi avlodlarimiz uchun kitoblarda tarix bo‘lib qolsin. Onam eslardi: “Bitta qora kulchani to‘rtta akang, opanglarga bo‘lib berib, dadang ikkimiz ushoqlarini tamaddi qilib kun o‘tkazardik”. Odamlar yerdagi giyohlarning ildizini yeb, shishib ketgan davrda ham bolasini sotgani haqida eshitmaganmiz.

Bir keksa otaxon yozgandi: “Urushdan keyingi yillarda ikki farzandli tog‘am bizni — ota-onadan yetim qolgan ikki jiyanini qaramog‘iga oldi. Men olti yashar, singlim Buvirajab beshikda yotardi. Bir kuni tog‘amning xotini kunjara ivitib hammamizga ozginadan berdi. Beshikda mo‘ltirab yotgan singlimga ham noiloj kunjaraning suvidan ozgina ichirib qo‘ydi. Tongda uyda yig‘i-sig‘i bo‘lib ketdi. Chiqib qarasam, Buvirajab ko‘karib, qotib qolgan ekan. Tog‘amning xotini umrining oxirigacha: “Men unga kunjara suvini ichirdim, o‘limiga sabab bo‘ldim”, deb yig‘lab gapirardi. Holbuki, o‘shanda uyda bir piyola kunjaradan boshqa narsa yo‘q edi”.

Achchiq savol: kuni ajriqning ildizi, kunjaraga qolgan zamonlardan ham jigargo‘shasini jonida asrab olib o‘tgan momolar, buvilar, onalarning avlodi — o‘zbek ayoli har kuni qancha-qancha nonu yeguliklar axlatga tashlanayotgan hozirgi paytda qanday sabab bilan bolasini sotmoqchi bo‘lyapti, pulga almashyapti?

> **“Shahnoza... yosh bolasi bilan otasinikida ikki yil o‘tirdi... Ish izlab Toshkentga keldi... ijarada yashadi... Kelin bo‘lib bir muddat Namanganda turdi... Keyin Yangiyo‘lga keldi... Moddiy-ma’naviy jihatdan yetishmovchilik, yolg‘izlik, to‘g‘ri maslahat beradigan odamning yo‘qligi bois xato yo‘lga kirib qoldi. Aslida, u doim o‘zimizning oramizda, xotin-qizlar bilan ishlashga mas’ullar faoliyat ko‘rsatib turgan mahallalarda yashadi. Na mas’ullar undan xabar oldi, na Shahnoza shunday mas’ullardan yordam, maslahat so‘rashi mumkinligini bildi**

Boshqalar nima deydi, bilmayman, lekin men (garchi 2020-yili Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizda kambag‘allik borligi rasman tan olingan bo‘lsa-da) ayni muammoning o‘q ildizi moddiy yetishmovchilik bilan bog‘liq, degan fikrda emasman.

Muammoning ildizi qayerda?

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardagi voqealarning manziliga e’tibor qaratsak: Buxoro viloyatida tug‘ilgan, Guliston shahrida vaqtincha yashovchi ayol; Termiz tumanida yashovchi ayol; Chirchiq shahrida yashovchi ayol; Namangan shahrida yashovchi ayol, ya’ni markaziy shaharlarda yoki markaziy shaharlarga yaqin-yondosh joyda yashab turgan ayollar bolasini sotmoqchi bo‘lgan. Statistik ma’lumotlarga qarasak, ayni shu joylarda oilaviy ajralishlar darajasi ham yuqori.

Yana bir mulohazali holat: garchi

Muhtarama ULUG‘OVA, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi.

keyingi yillarda mamlakatimiz barcha hududining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maishiy rivojlanishiga, odamlarning ish bilan ta’minlanishiga jiddiy e’tibor qaratilib, ijobiy o‘zgarishlar bo‘layotgan esa-da, viloyatlarning chekka-chekka, shahar va tumanlar markazlaridan olis manzil-makonlari aholisining hayoti markazliklar turmush darajasiga yetib olishi uchun yillar kerak bo‘ladi. U yerlarda hamon ichimlik suvi tashib keltiriladigan, gaz yetib bormagan joylar bor. Elektr chiroqlari kechasiyu kunduzi birdek charaqlamaydi. Do‘konu bozorlarda shahardagi kabi xilma-xil mollar, mahsulotlar bosilib yotgani yo‘q, doimiy ish o‘rinlari yetishmaydi, mehnat sharoitlari ham shunga yarasha... Ammo o‘shandoq joylarda yashab turgan onalardan birortasi bolasini sotganini eshitmadik! Ha, tan olish kerak, markaziy shaharlardagi hayot, O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov xavotir bilan yozganidek, ayrim xotin-qizlardan hayo pardasini ko‘tarib yuborgani kabi, ayrim ayollar qalbidan onalik mehr-muhabbati, mas’uliyati, rahm-shafqatini ham yupqartirib, yuvib tashlayotgandek. Sababi...

Mustaqillik tufayli biz dunyoga chiqdik, dunyo xalqlari uchun chegaralarimiz ochildi. Axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali jahondagi elu millatlar hayoti, madaniyati, urf-odatlari, e’tiqodiga oid ma’lumotlar xonadonlarimiz (ayniqsa, markaziy shahar va tumanlar aholisi) ga yog‘ilib turibdi. Mana shu jarayonda aksariyat yurtdoshlarimiz bebaho ne’mat — erkinlik saodatini, haq-huquqlarini anglab borgani sayin o‘zlarining jamiyatdagi burch va huquqlaridan foydalanish hamda buni himoya qilishni, ezgulikka yetaklaydigan umuminsoniy g‘oyalar, ibratli an’analarni yanada kengroq o‘rgandi; ayrimlar esa o‘zlari bilib-bilmagan holda millatimiz, necha asrlik qadriyatlarimizga yot bo‘lgan qusurlar: hayotga yengil-yelpi qarash, “bir marta beriladigan umrda yashab qolish” kayfiyati, illati, xudbinligini chet el hayotidan bevosita yoki bilvosita “yuqtirib” oldi. Dunyo ilg‘or madaniyati, yuksak ma’naviyatining ochiq-oshkor kushandasi bo‘lgan “ommaviy madaniyat” ko‘rinishidagi efirlar, liboslar, ko‘rgazmali muomala-munosabatlar, yaltir-yultur qog‘ozu yelim idishlarga o‘ralgan sun’iy hid, ta’m, rang berilgan yemishlar vositasida qay bir kishilar ongidagi bo‘shliqqa o‘rmalab kirdi, qalbini zaharladi.

Biz Vatan, ona, xalq, farzand uchun umrini tikib yashaydiganlar haqida gapirganimizda mustahkam e’tiqod hammada ham birdek bo‘lmasligini hisobga olishimiz kerak. Kishi qanaqa oilada tarbiya topgani, kimlardan ilmu saboq olgani, atrofida qanday odamlar bo‘lgani bilan bog‘liq ravishda to‘g‘ri, noto‘g‘ri yoki ora yo‘lga tushib qolishi va xuddi shu sabablar natijasida hayot sinovlarini yengishda barcha birdek irodali, sabrli, mulohazali bo‘lib ulg‘aymasligini unutmasligimiz shart. Qay bir ayol to‘qqiz oydan ortiq muddatda yuragining tagida ne holatlarga tushib ehtiyotlab kelgan, hayotu mamot o‘rtasida turib dunyoga keltirgan, jonining bir parchasi bo‘lgan bolasini o‘tkinchi muammolarini hal etish uchun pulga almashtirmoqchi ekan, demak, u hayotning noto‘g‘ri ko‘chasiga kirgan.

Yuqorida markaziy shaharlar haqida bejiz to‘xtalmadik. Ota-onadan uzoqlashib bu yerlarga o‘qish, ishlash maqsadida kelgan qizlar, ayollar uchun yurish-turishda, kiyinishda, tanish-bilish tanlashda, turli joylarga borishda, ovqatlanish va hokazolarda ilgari hech sinab ko‘rilmagan “erkin”liklar eshigi ochilib ketganday bo‘ladi. Bolasini tug‘uruqxonaga (yoki ko‘chaga, axlatxonaga... astag‘firulloh!) tashlab ketgan qizlarning aksariyati shu “eshik”lardan biriga kirib qolgan bo‘ladi. “Xo‘sh, unda chirchiqlik ayolning 2018-yilda tug‘ilgan o‘g‘lini, namanganlik ona 2014-yilda tug‘ilgan o‘g‘lini sotmoqchi bo‘lganini qanday tushunish mumkin?” degan savol tug‘iladi. Axir ularning biri bolasini olti yoshgacha, ikkinchisi o‘n (!) yoshgacha boqib tarbiyaladi. Yomon niyat ona qalbida birdaniga paydo bo‘ldimikin? Yo‘q! Ayni savolning javobi, yechimi hammamizga taalluqli.

Mehr-oqibat, o‘zaro ishonch rishtalari uzilsa...

Bir hayotiy misol keltirmoqchiman: bundan uch yillar muqaddam “Adolat” gazetasida sirdaryolik sud organi xodimlarining bir jinoiy ish haqidagi maqolasi chiqdi. Unda Shahnozaxon ismli ayol chaqalog‘ini sotayotganda ichki ishlar xodimlari tomonidan qo‘lga olinib, besh yilga ozodlikdan mahrum etish chorasi ko‘rilgani haqida yozilgandi.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, ayol Farg‘ona viloyatining Bag‘dod tumanidan bo‘lib, eridan ajralgan, kichik farzandi bilan otasinikida ikki yil yashagan. Moddiy qiyinchiliklar tufayli Toshkentga kelib, tikuvchilik sexida ishlagan. O‘sha paytda namanganlik bir erkakka shar’iy nikoh bilan turmushga chiqib, erinikiga ketgan. Lekin yangi oilasidagilar ayolning farzandini chiqishtirmagani sababli Shahnozaxon yana Toshkentga kelib ishlaydi, Yangiyo‘lda ijara uyda yashaydi. Uch oylar o‘tgach ayol homiladorligini biladi, shar’iy nikohga olgan eriga bu haqda ma’lum qiladi, ammo “er” homilani oldirib tashlashni maslahat beradi. Homila ancha katta bo‘lib qolgani uchun shifokorlar bu amaliyotga ko‘nishmaydi. Bu orada Shahnozaning bir xonalik ijara uyiga ukasi ham oilasi bilan ko‘chib kelib yashay boshlaydi. Ularning tirikchiligi ham ishlab turgan Shahnozaning zimmasiga tushadi. Shuning uchun “Ikkinchi farzandim tug‘ilsa, yanayam qiyin ahvolda qolaman”, degan tashvishini birga ishlaydigan qizga aytadi. Qiz tezda tanish yigitini, yigit esa sirdaryolik o‘rta yoshli ayolni boshlab keladi. Sirdaryolik xotin kelini bir necha yildan buyon farzand ko‘rmayotganini aytib, “Tug‘ilajak chaqaloqni bizga bering”, deb so‘raydi. Bolani o‘z farzandidek ko‘rib ulg‘aytirishini aytadi. Shahnoza bu taklifga rozi bo‘ladi. Sirdaryolik ayol uni Gulistonga olib borib shifokorlarga ko‘rsatadi, davolatadi, o‘g‘ligayam g‘amxo‘rlik qiladi. Shu orada... bu gaplardan xabardor bo‘lgan bir tanishi Shahnozaga: “Sen u ayolning hojatini chiqaryapsan-ku, u ham senga yordam bersin. Ijarada turgan uyingni sotib olishga pul so‘ra”, deb yo‘l ko‘rsatadi. O‘zining nazarida boshi berk ko‘chaga kirib qolgan Shahnoza bu gapga qo‘shiladi, sirdaryolik ayoldan o‘n bir ming AQSh dollari berishini so‘raydi. “Mayli, men o‘ylab ko‘ray-chi”, degan javob bo‘ladi.

Xullas, chaqaloq tug‘ilganining beshinchi kunida, kelishib olganlaridek, sirdaryolik ayol kirib keladi, yonidagi erkakni o‘zining yaqin odami sifatida tanishtiradi. Chaqaloq yo‘rgaklanib, yangi “onasi”ga topshirilib, kelishilgan pul haqiqiy ona qo‘liga o‘tgan zahoti haligi erkak o‘zining ichki ishlar xodimi ekanini aytadi, Shahnozaning qo‘liga kishan solinadi. Sud uni besh yil muddatga ozodlikdan mahrum etish haqida hukm chiqaradi (sirdaryolik xotinning avvaliga bolani o‘zaro kelishib qo‘lga kiritmoqchi bo‘lgani, Shahnozaga mehribonchiliklari, Shahnozaning ishi jinoyat ekani haqida og‘iz ochmay, o‘rtaga pul masalasi tushganda o‘zgarishi va shundayam bir og‘iz ogohlantirmay, sudda “Bu ayol bolasini sotmoqchi bo‘lgani, jinoyat yo‘liga kirgani uchun huquq-tartibot xodimlariga ma’lum qildim”, deb adolatparvar bo‘lib guvohlik berishi — qalbni parmalab tashlaydigan alohida mavzu).

> **“Achchiq savol: kuni ajriqning ildizi, kunjaraga qolgan zamonlardan ham jigargo‘shasini jonida asrab olib o‘tgan momolar, buvilar, onalarning avlodi — o‘zbek ayoli har kuni qancha-qancha nonu yeguliklar axlatga tashlanayotgan hozirgi paytda qanday sabab bilan bolasini sotmoqchi bo‘lyapti, pulga almashyapti”**

Voqeaning oqibatinigina bayon etmasdan, o‘zi va bolasini, o‘rni kelsa jigarlarini ham boqish uchun harakat qilgan, oilaviy baxtga intilgan, tajribasizligi, bir to‘g‘ri maslahat beradigan odami yo‘qligi tufayli jinoyatchiga aylangan Shahnozaning boshidan kechirganlarini maydalab yozganim sababi — hurmatli o‘quvchini mushohadaga chorlash.

Yodingizda bo‘lsa, 2017-yilning yozida Yurtboshimiz keng jamoatchilik vakillari bilan o‘tkazgan yig‘ilishda ayollar, onalar haqida alohida to‘xtalib, xotin-qizlar masalalari bilan shug‘ullanadigan maslahatchilarga ikki oy muddatda o‘zi mas’ul bo‘lgan mahallalardagi barcha xonadonga birma-bir kirib, oiladagi xotin-qizlarning sog‘lig‘idan tortib ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-maishiy muammolarigacha o‘rganib chiqishni, shu asosda tegishli tashkilotlar bilan muammolarni hal etish choralarini ko‘rishni topshirgan edi. O‘shandan buyon barcha mahallada nomlanishi o‘zgarsa-da, vazifasi shu hududdagi xotin-qizlar bilan ishlashga mas’ul bo‘lgan xodimalar faoliyat ko‘rsatib kelyapti.

Oila, ayollar, onalik va bolalarga har jihatdan g‘amxo‘rlik — Prezidentimiz eng ko‘p e’tibor qaratayotgan masalalardan biri; har gal bu borada gapirib, vazifalar qo‘yganda, mas’ullarning o‘z tasarrufidagi hududning barcha xotin-qizlari bilan yuzma-yuz doimiy muloqotda, ularning ahvolidan boxabar bo‘lishni, ayniqsa, yordamga muhtojlarni qo‘llab-quvvatlashni, ijtimoiy yordam chin egalarini topishi shartligini ko‘p ta’kidlaydi. Toki jamiyatning jipsligi, mehr-oqibat, o‘zaro ishonch rishtalari ana shu nozik joylardan uzilib ketmasin, qiynalganlar, chetda qolganlar niyati buzuqlarning domiga tushib qolmasin.

Yuqorida eslaganimiz Shahnoza... yosh bolasi bilan otasinikida ikki yil o‘tirdi... Ish izlab Toshkentga keldi... ijarada yashadi... Kelin bo‘lib bir muddat Namanganda turdi... Keyin Yangiyo‘lga keldi... Moddiy-ma’naviy jihatdan yetishmovchilik, yolg‘izlik, to‘g‘ri maslahat beradigan odamning yo‘qligi bois xato yo‘lga kirib qoldi. Aslida, u doim o‘zimizning oramizda, xotin-qizlar bilan ishlashga mas’ullar faoliyat ko‘rsatib turgan mahallalarda yashadi. Na mas’ullar undan xabar oldi, na Shahnoza shunday mas’ullardan yordam, maslahat so‘rashi mumkinligini bildi! Qishloqda mehnatda ulg‘aygan, halol rizq topish yo‘lida bo‘lgan, farzandini boqish, ulg‘aytirish uchun qo‘lidan kelgancha harakat qiladigan... ammo soddayu ishonuvchanligi uchun xato yo‘lga kirib qolib, tajribasizligiyu irodasizligidan noto‘g‘ri maslahat, va’daning qopqoniga tushganlarning bitta vakili bu. Mo‘rt niholni shamol, yomg‘iru sel xohlagan tomonga egishi, qayirishi, sindirishi, yakson qilishi oson bo‘ladi.

To‘g‘ri, joylarda xotin-qizlarning ishongan maslahatchisi, qo‘llab-quvvatlovchisi, jonkuyariga aylangan xodimalar, jamoatchilik faollari kam emas. Shu bilan birga...

2017-yili kech kuzda Farg‘onaning Shohimardon qishlog‘ida kelin qaynonasining hayotiga kutilmaganda zomin bo‘ldi. Qaynona o‘g‘li yoqtirib uylangan kelinini boshdanoq xushlamagani qarindoshu qo‘shnilarga ma’lum ekan. O‘g‘il haftada bir marta ishdan dam olish kuni uyiga kelar, orada qaynona kelinini yarim kechalarda haydab chiqargani ham atrofdagilarga sir emas ekan. Ammo fojiadan keyin qishloq fuqarolar yig‘inida “Bu oila a’zolari ahil, tinch yashab kelgan. Kutilmagan janjal oqibatida o‘lim sodir bo‘ldi”, qabilida hujjat taxlab qo‘yilgan. Eng ajablanarlisi, mahalladagi xotin-qizlar bilan ishlaydigan maslahatchi — marhum qaynonaning yaqin dugonasi, devor-darmiyon qo‘shni ham shu fikrni tasdiqlagan. “Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi”. Muxbirning “Fojia yuz bergan kuni qaynona-kelin hovligacha bir-birini urib-surib chiqib, baqir-chaqir qilishgan, siz eshitmadingizmi?” degan savoliga maslahatchi: “Bu ham har doimgi urush-janjallardan biri bo‘lsa kerak, deb o‘yladim”, deb javob bergan... Mana shunday ro‘yxatda bor-u, amalda yo‘q “mas’ullar” ozmi, ko‘pmi?.. Ammo bitta bo‘lsa ham ortiqcha! Chunki uning mas’uliyatsizligi bois yuz bergan bitta noxushlik oqibati qancha taqdirlarga soya, dog‘ solishi mumkin.

Asosiy mezon — qalblarga yo‘l topa bilish

Bunday mas’ul vazifalarga har bir mahalla xotin-qizlari o‘zlari yaxshi bilgan, og‘irlarini yengil, mushkullarini oson qilishni insoniy va davlat oldidagi burchi deb biladigan; o‘zi shundog‘am bekamu ko‘st bo‘lganlarga emas, muhtojlarga qayishadigan; tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaydigan; faqat yig‘inlarda davra yoki dasturxon tayyor bo‘lgandan keyin kelib, to‘rga chiqib o‘tirib, pandu nasihat qilib ketadigan “ishi juda ko‘p, vaqti kam” “aktivist”lar emas, balki ayolni tinglay biladigan, ayollar o‘z dardini aytishga jur’at eta oladigan, mahallasidagi har bir ona, beka, qizlarning bugungi hayoti, kayfiyati, yurish-turishidan boxabarlik doimiy ehtiyojiga aylanadigan oqila, g‘amxo‘r, tadbirkor vakilalarni o‘zlari tanlab, saylab olishlari kerak.

Yomon niyat qora bulutdek birdan bostirib kelmaydi, bir sabab bilan dilda tug‘iladi va uning yo‘lini to‘sguvchi yorug‘lik bo‘lmasa, qalbni ishg‘ol qilib boradi... Ayol o‘zi, bolasi hayotini xavf-xatar, noaniqlikka qo‘yguvchi yo‘lga qadam bosgunicha ancha-muncha ikkilanishlar, savollar, qo‘rquv-xavotirlar ko‘chasidan o‘tadi. Ana shu jarayonda mehru shafqat bilan uzatilgan bir qo‘l uning taqdirini xato, gunoh, bir umrlik armonlardan asrab qolishi mumkin.

Ancha cho‘zilib ketgan mulohazayu bayonlarimizdan aytmoqchi bo‘lgan fikrimiz shu: mahalladoshmi yoki boshqa joydan ko‘chib kelganmi, ko‘chamizda (“dom”imizda) muqim yashaydimi yoki vaqtincha ijarachimi, ko‘zimizga yoqimli ko‘rinadimi yoki yoqimsizmi — birorta qiz-ayol xotin-qizlar masalalari bo‘yicha mas’ullarning e’tiboridan chetda qolmasin. Qiynalgan, kamsuqum, andishali, o‘zining biror-bir ishidan xijolatda yoki pushaymonlikda yurgan opa-singillar savoliga javob, maslahat, yordam olishini kafolatlaydigan muhit yaratish — qalblar tomon ishonch ko‘prigi solish.

“Saodat” jurnaliga bosh muharrirlik qilgan paytlarida O‘zbekiston xalq shoiri Zulfiyaxonim biz — xodimlarga ta’kidlab: “Ayolni tushunmaydigan, uni qo‘llab-quvvatlamaydigan ijodkorga bu muharririyatda o‘rin yo‘q”, degan edi. Ha, jamiyatimiz oldiga: “Ayolni tushunmaydigan, uni qo‘llab-quvvatlamaydigan, xotin-qizlarning ahvolidan doim xabardor bo‘lib, muammolarini hal etish yo‘llarini izlamaydigan xodimaning onalar va bo‘lajak onalar taqdiriga mas’ullik yuklangan lavozimlar, vazifalarda ishlashga haqi yo‘q”, degan qat’iy talabni qo‘yishimiz va buning amalini nazoratga olishimiz kerak.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142.15 736 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir B. Madiyorov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.32 Topshirildi — 00.25 1 2 3 4 5 6